

---

## The role of Cholpon's translation skills in Uzbek translation studies

Karimova Ugiloy

[karimovaogiloy2301@gmail.com](mailto:karimovaogiloy2301@gmail.com)

Bachelor student,

Uzbekistan State World Languages University

**Annotation** *This article provides a scholarly analysis of the translation work of Abdulhamid Sulaymon ugli Chulpon, a prominent figure in twentieth-century Uzbek literature, as well as his contribution to the development of Uzbek translation studies and his principles of literary translation. The study examines Chulpon's approach to translating works of world literature into Uzbek, his skill in maintaining harmony between the original text and the translation, his views on translation theory, and his role in the formation of the Uzbek school of literary translation. The analysis demonstrates that Chulpon's translations enriched national literature in terms of genre and style and played a crucial role in shaping the theoretical and practical foundations of Uzbek translation studies.*

**Keywords** *translation, translation studies, literary translation, Jadid literature, original text, translator's skill, national literature*

---

## Cho'lpon tarjimonlik mahoratining o'zbek tarjimashunosligidagi o'rni

Karimova O'g'iloy

[karimovaogiloy2301@gmail.com](mailto:karimovaogiloy2301@gmail.com)

Bakalavr talabasi,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

**Annotatsiya** *Mazkur maqolada XX asr o'zbek adabiyotining yirik namoyandasi Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lponning tarjimonlik faoliyati, uning o'zbek tarjimashunosligi rivojiga qo'shgan hissasi hamda badiiy tarjima tamoyillari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida Cho'lponning jahon adabiyoti namunalarini o'zbek tiliga tarjima qilishdagi yondashuvi, asliyat va tarjima o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlash mahorati, tarjima nazariyasiga oid qarashlari va o'zbek badiiy tarjima maktabi shakllanishidagi o'rni o'rganildi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Cho'lpon tarjimalari milliy adabiyotning janr va uslub jihatdan boyishiga xizmat qilgan hamda o'zbek tarjimashunosligining nazariy va amaliy asoslarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etgan.*

**Kalit so'zlar** *tarjima, tarjimashunoslik, badiiy tarjima, jadid adabiyoti, asliyat, tarjimon mahorati, milliy adabiyot*

---

## Роль переводческого мастерства Чулпона в узбекском переводе

Каримова Огилрой

[karimovaogiloy2301@gmail.com](mailto:karimovaogiloy2301@gmail.com)

Студент бакалавриата,

Узбекский государственный университет

мировых языков

**Аннотация** *В данной статье проводится научный анализ переводческой деятельности Абдулхамиды Сулеймана Чулпона – выдающегося представителя узбекской*

*литературы XX века, а также его вклада в развитие узбекского переводоведения и принципов художественного перевода. В ходе исследования изучены подходы Чулпона к переводу произведений мировой литературы на узбекский язык, его умение обеспечивать гармонию между оригиналом и переводом, его взгляды на теорию перевода и роль в становлении узбекской школы художественного перевода. Анализ показывает, что переводы Чулпона способствовали обогащению национальной литературы в жанровом и стилистическом отношении и сыграли важную роль в формировании теоретических и практических основ узбекского переводоведения.*

**Ключевые слова** *перевод, переводоведение, художественный перевод, джадидская литература, оригинал, мастерство переводчика, национальная литература*

### **Kirish**

Tarjima insoniyat tarixidagi eng qadimiy madaniy hodisalardan biri hisoblanadi. Turli xalqlar o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalar rivojlangan sari tarjimaga bo'lgan ehtiyoj ham ortib borgan. Ayniqsa, badiiy tarjima millatlar o'rtasidagi ma'naviy ko'priklar vazifasini bajarib, adabiy tajribalar almashinuvi, estetik qarashlar rivoji va madaniyatlararo muloqotni ta'minlab kelgan.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston hududida jadidchilik harakati yuzaga kelishi natijasida milliy adabiyotda yangilanish jarayonlari kuchaydi. Jadid ma'rifatparvarlari jahon ilm-fani va adabiyoti yutuqlarini xalq orasida targ'ib qilishga intildilar. Bu jarayonda tarjima eng muhim vositalardan biri bo'ldi. Aynan tarjima orqali Yevropa va Sharq xalqlari adabiyotining eng sara namunalari o'zbek kitobxoniga yetib kela boshladi (Karimov, 2003).

Ana shunday murakkab tarixiy sharoitda faoliyat yuritgan Cho'lpon nafaqat shoir, yozuvchi va dramaturg, balki iste'dodli tarjimon sifatida ham o'zbek madaniyati tarixida muhim o'rin egalladi. U jahon adabiyotining eng mashhur asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilib, milliy adabiyotning taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatdi. Uning tarjimalari tufayli o'zbek kitobxonlari Shekspir,

Pushkin, Gogol, Gorkiy, Molyer, Geyne, Tagor va boshqa ko'plab adiblar ijodi bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ldilar (Sharafiddinov, 1994).

Cho'lpon tarjimonlik faoliyatini o'rganish bugungi tarjimashunoslik uchun ham dolzarb ahamiyatga ega. Chunki u tarjima jarayonida asarning mazmunini emas, balki uning ruhini, badiiy jozibasini va estetik ta'sirini ham saqlashga intilgan. Bu esa zamonaviy tarjima nazariyasida muhim hisoblangan ekvivalentlik va adekvatlik tamoyillari bilan uyg'unlashadi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, Cho'lponning tarjimonlik mahorati ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan bo'lsa-da, uning o'zbek tarjimashunosligi shakllanishidagi o'rni hamon chuqur tahlilni talab qiladi. Ayniqsa, mustaqillik davrida Cho'lpon merosining qayta tiklanishi uning tarjimalarini yangicha ilmiy yondashuvlar asosida o'rganish imkoniyatini yaratdi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi Cho'lpon tarjimonlik mahoratining o'zbek tarjimashunosligi rivojida o'rnini aniqlash va uning tarjima tamoyillarini ilmiy jihatdan tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Cho'lponning tarjimonlik faoliyatini o'rganish;

- tarjima haqidagi nazariy qarashlarini tahlil qilish;
- mashhur tarjimalarini qiyosiy o'rganish;
- tarjimalarning o'zbek adabiyoti rivojiga ta'sirini aniqlash;
- Cho'lpon tarjimonlik maktabining bugungi ahamiyatini baholash.

#### **Adabiyotlar sharhi**

Cho'lpon ijodi o'zbek adabiyotshunosligida keng tadqiq qilingan mavzulardan biridir. Biroq sovet davrida uning nomi va ijodiga nisbatan siyosiy cheklolar mavjud bo'lgani sababli ko'plab masalalar yetarli darajada o'rganilmagan.

Mustaqillik yillarida Cho'lpon merosi qayta tiklanib, uning asarlari qayta nashr etildi va ilmiy muomalaga kiritildi. Bu borada akademik Naim Karimovning xizmatlari alohida ahamiyatga ega. Olim Cho'lpon hayoti va ijodiga bag'ishlangan tadqiqotlarida uning tarjimonlik faoliyatini ham keng yoritgan (Karimov, 2003, 2008).

Ozod Sharafiddinov Cho'lpon ijodini chuqur tadqiq qilgan olimlardan biri sifatida tarjimalarning badiiy qimmatini alohida ta'kidlaydi. Uning fikricha, Cho'lpon tarjimada asliyatga ijodiy yondashib, yangi badiiy matn yaratishga muvaffaq bo'lgan (Sharafiddinov, 1994).

Dilmurod Quronov, Bahrom Karimov, To'lqin Rahimov va boshqa olimlar ham Cho'lpon tarjimalarining uslubiy va badiiy xususiyatlarini tahlil qilganlar (Karimov, 2015; Quronov, 2010; Rahimov, 2012).

Xorijiy tarjimashunoslikda esa Yu. Naydanning "dinamik ekvivalentlik" nazariyasi, P. Nyumarkning kommunikativ tarjima tamoyillari hamda L. Venutining madaniyatlararo tarjima haqidagi qarashlari muhim ahamiyatga ega. Cho'lpon tarjimalari ushbu nazariyalar nuqtayi nazaridan tahlil qilinganda ham yuqori badiiy saviyaga ega ekani namoyon bo'ladi (Nida, 1964; Newmark, 1988; Venuti, 1995).

Cho'lponning o'zi ham tarjima masalalariga bag'ishlangan risolalar yozgan. Xususan, "Tarjima to'g'risida andak" va "Shohnomaning turkcha tarjimasi" kabi

maqolalari o'zbek tarjimashunosligi tarixidagi dastlabki nazariy qarashlar sifatida e'tiborga loyiqdir (Cho'lpon, 2016).

Ushbu maqolalarda Cho'lpon tarjimada muallif uslubi, milliy ruh va badiiy ta'sirni saqlash zarurligini alohida ta'kidlaydi. Bu qarashlar uning amaliy tarjimalarida ham yaqqol namoyon bo'ladi.

#### **Tadqiqot metodologiyasi**

Mazkur tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, tavsifiy, komparativ va matniy tahlil usullaridan foydalanildi.

Tarixiy-qiyosiy usul yordamida Cho'lpon faoliyat yuritgan davrning adabiy muhiti hamda tarjima jarayonlari o'rganildi. Komparativ tahlil orqali asliyat va tarjima matnlari o'zaro qiyoslandi. Matniy tahlil usuli esa tarjima jarayonida qo'llangan badiiy vositalarni aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqot manbalari sifatida Cho'lpon tarjimalari, uning adabiy-tanqidiy maqolalari, tarjimashunoslikka oid ilmiy tadqiqotlar va zamonaviy tarjima nazariyasiga bag'ishlangan asarlardan foydalanildi (Baker, 2011; Bassnett, 2002; Catford, 1965; G'afurov, 2011; Jakobson, 1959; Munday, 2008; Salomov, 1978).

#### **Natijalar**

#### **Cho'lpon tarjimalarining o'zbek tarjimashunosligi rivojidadagi ahamiyati**

XX asr boshlarida o'zbek adabiyotida tarjima faoliyati yangi bosqichga ko'tarildi. Bu jarayonda Cho'lponning xizmatlari alohida o'rin tutadi. U tarjimani shunchaki bir tildan ikkinchi tilga so'zlarni ko'chirish deb emas, balki badiiy-estetik qadriyatlarni yangi madaniy muhitda qayta yaratish san'ati deb tushungan.

Cho'lpon tarjimalari tufayli o'zbek kitobxonlari jahon adabiyotining eng mashhur namunalari bilan tanishdi. Natijada milliy adabiyotda yangi badiiy usullar, obrazlar tizimi va janr xususiyatlari shakllana boshladi. Tarjimalar milliy adabiyotning badiiy imkoniyatlarini kengaytirib, adabiy tafakkurning rivojlanishiga xizmat qildi.

Tarjimon tomonidan tanlangan asarlar tasodifiy emas edi. U xalq ma'naviyatini boyitishga, erkinlik, insonparvarlik va adolat

g'oyalarini targ'ib qilishga xizmat qiladigan asarlarni tanlashga harakat qilgan. Shu sababli Cho'lpon tarjimalari ma'rifiy va estetik vazifalarni birgalikda bajargan.

### **Pushkin she'rlari tarjimasida Cho'lpon mahorati**

Cho'lpon tarjimonlik iste'dodi ayniqsa Aleksandr Pushkin asarlarining tarjimalarida yorqin namoyon bo'ladi. A. Pushkin rus adabiyotining asoschilaridan biri sifatida

murakkab badiiy uslubga ega bo'lgan shoir hisoblanadi. Uning she'rlarini boshqa tilga tarjima qilish katta mahorat talab etadi.

Cho'lpon A. Pushkin she'rlarini tarjima qilishda so'zma-so'zlikdan qochadi. U asliyatning ichki ma'nosini, hissiy ta'sirini va poetik ohangini saqlashga harakat qiladi. Bunga Pushkinning "Gul va bulbul" she'ri tarjimasi yorqin misol bo'la oladi.

*В безмолвии садов, весной, во мгле ночей,  
Поэт над розою восточный соловей.  
Но роза милая не чувствует, не внемлет,  
И под влюбленный гимн колеблется и дремлет.  
Не так ли ты поешь для холодной красоты?  
Опомнись, о поэт, к чему стремишься ты?  
Она не слушает, не чувствует поэта:  
Глядишь, она цветет, зываешь – нет ответа.*

Cho'lpon ushbu she'rni quyidagicha tarjima qilgan:

*Bahor chog'ida xoli bog'da bir zulmatli tun erdi,  
G'arib bulbul fig'on aylab, «gulim, rahm aylagil» derdi.  
Biroq ul gul quloq solmas edi faryodu afg'ona,  
Faqat orom olardi noladin to'lg'ona-to'lg'ona.  
Seni hech sevmagan bir gul uchun, ey shoirim, sen ham  
Yonarsan, o'rtanarsan, dod etarsan, tinglamas bir dam,  
Qo'y endi, behuda dod etma, ohing unga yetmaydi,  
Qaraysan – yashnagan bir gul, faqat ovoz bermaydi.*

Ko'rinadiki, tarjimon ayrim obrazlarni o'zgartirgan. Masalan, "sharq bulbuli" o'rniga "g'arib bulbul" ifodasini qo'llagan. Biroq mazmun va hissiy ta'sir saqlangan. Hatto ayrim hollarda hissiy kuch yanada ortgan.

Ozod Sharafiddinov ta'kidlaganidek, Cho'lpon Pushkin bilan ma'naviy hamohanglikka erishgan va asarning ruhini qayta yarata olgan. Bu holat zamonaviy tarjimashunoslikdagi "ijodiy adekvatlik" tamoyiliga mos keladi (Sharafiddinov, 1994).

### **She'riy tarjimada badiiy ekvivalentlik masalasi**

She'riy tarjima tarjimon oldiga eng murakkab vazifalarni qo'yadi. Chunki she'rda faqat mazmun emas, balki ritm, ohang, qofiya, musiqiylik va obrazlilik ham muhim rol

o'ynaydi. Cho'lpon she'r tarjimalarida quyidagi tamoyillarga amal qilgan:

- badiiy obrazni saqlash;
- hissiy ta'sirni qayta yaratish;
- milliy til imkoniyatlaridan foydalanish;
- she'r musiqiyiligini yo'qotmaslik.

Ayniqsa, Genrix Geyne va Rabindranat Tagor she'rlarining tarjimalarida ushbu xususiyatlar yaqqol ko'rinadi. Cho'lpon she'riy tarjimalarida o'zbek mumtoz she'riyati tajribasidan ham unumli foydalangan. Natijada tarjimalar o'zbek kitobxoniga tabiiy va ravon eshitiladi. Bu esa tarjimaning muvaffaqiyatli chiqqanidan dalolat beradi.

### **"Hamlet" tragediyasi tarjimasi**

Cho'lponning eng muhim tarjimalaridan biri Uilyam Shekspirning "Hamlet"

tragediyasidir. Jahon dramaturgiyasi tarixida alohida o'rin tutadigan ushbu asarni tarjima qilish katta bilim va mahorat talab qiladi. "Hamlet" asarida falsafiy mushohadalar, murakkab psixologik holatlar, tarixiy muhit va she'riy nutq birgalikda namoyon bo'ladi. Cho'lpon ushbu murakkabliklarni muvaffaqiyatli ravishda o'zbek tiliga ko'chira olgan. Mashhur "To be or not to be" monologi o'zbek tilida ham falsafiy chuqurligini saqlab qolgan. Tarjimon ingliz tilidagi murakkab sintaktik qurilmalarni o'zbek tilining tabiiy qonuniyatlariga moslashtirgan.

Natijada asar nafaqat o'qish uchun, balki sahnalashtirish uchun ham qulay shaklga ega bo'lgan. O'zbek teatr san'atining rivojlanishida aynan ushbu tarjimaning ahamiyati katta bo'lgan.

#### **"Malikai Turandot" tarjimasini**

Karlo Gossining "Malikai Turandot" asari ham Cho'lpon mahoratini ko'rsatuvchi yirik tarjimalardan biridir. Mazkur asarda sharqona ertak unsurlari, dramatik voqealar va romantik motivlar mujassam. Cho'lpon asarni tarjima qilishda milliy ruhni saqlash, dialoglarning tabiiyligini ta'minlash va sahna nutqini ravonlashtirish masalalariga katta e'tibor qaratgan. Tarjima natijasida asar o'zbek tomoshabiniga yaqinlashgan va teatr repertuaridan munosib o'rin olgan.

#### **Gorkiyning "Ona" romani tarjimasini**

Maksim Gorkiyning "Ona" romani XX asr adabiyotidagi eng mashhur asarlardan biri hisoblanadi. Cho'lpon ushbu asarni tarjima qilishda nasriy tarjimaning yuqori namunalardan birini yaratgan. Asardagi qahramonlar xarakteri, ijtimoiy muhit va psixologik tasvirlar aniq va ravshan ifodalangan. Tarjima o'zbek kitobxoniga murakkab ijtimoiy-falsafiy masalalarni tushunishga yordam bergan. Shuningdek, roman o'zbek nasrining rivojlanishiga ham ma'lum darajada ta'sir ko'rsatgan.

#### **Gogol va Chexov asarlari tarjimasini**

Cho'lpon Nikolay Gogol va Anton Chexov asarlaridan ham namunalar tarjima qilgan. Gogol nasrida satira va yumor ustun bo'lsa,

Chexov ijodida psixologik noziklik va ichki kechinmalar muhim o'rin tutadi. Tarjimon ushbu uslubiy farqlarni yaxshi his qilgan. Natijada har bir muallifning individual uslubi saqlanib qolgan. Bu esa Cho'lponning tarjima madaniyati naqadar yuqori bo'lganini ko'rsatadi.

#### **Cho'lponning tarjima tamoyillari**

Tahlillar asosida Cho'lpon faoliyatida quyidagi tarjima tamoyillari mavjudligini ko'rish mumkin:

1. Asliyat ruhini saqlash. Cho'lpon uchun eng muhim vazifa muallif ruhiyatini saqlash edi.
2. So'zma-so'zlikdan qochish. U tarjimani mexanik jarayon deb hisoblamagan.
3. Milliyashtirish. Asar o'zbek kitobxoniga tushunarli va yaqin bo'lishi kerak deb hisoblagan.
4. Badiiylilikni ustuvor qo'yish. Tarjima avvalo badiiy asar sifatida qabul qilinishi kerak edi.
5. Til boyligidan foydalanish. Cho'lpon xalq tilining barcha imkoniyatlarini ishga solgan.

#### **Cho'lpon tarjimalarining milliy adabiyotga ta'siri**

Cho'lpon tarjimalari o'zbek adabiyotining keyingi taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatdi. Xususan:

- drama janri rivojlandi;
- roman janri takomillashdi;
- badiiy til boyidi;
- ahon adabiyoti tajribasi o'zlashtirildi;
- yangi estetik qarashlar shakllandi.

Cho'lpon tarjimalari orqali o'zbek yozuvchilari jahon adabiy tajribasi bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Natijada milliy adabiyot yangi bosqichga ko'tarildi.

#### **Muhokama**

#### **Cho'lpon tarjimalarining zamonaviy tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan baholanishi**

Tarjima nazariyasida asliyat va tarjima o'rtasidagi munosabat masalasi doimo muhim ilmiy muammolardan biri bo'lib kelgan. XX

asrning ikkinchi yarmida Yu. Nayda, Piter Nyumark, J. Ketford, Lourens Venuti kabi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan nazariyalar tarjima jarayoniga yangicha yondashuvlarni olib kirdi. Ushbu nazariyalar nuqtayi nazaridan qaralganda, Cho'lponning tarjimonlik faoliyati zamonaviy tarjimashunoslik tamoyillariga juda yaqin ekanligi ko'rinadi (Catford, 1965; Nida, 1964; Newmark, 1988; Venuti, 1995).

Masalan, Yu. Nayda tomonidan ilgari surilgan "dinamik ekvivalentlik" nazariyasiga ko'ra, tarjima o'quvchida asliyat o'quvchisida paydo bo'lgan ta'sirga yaqin ta'sir uyg'otishi kerak. Cho'lpon tarjimalarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, u aynan mana shu tamoyilga amal qilgan. U asarning mazmunini emas, uning hissiy-estetik kuchini ham o'zbek kitobxoniga yetkazishga intilgan (Nida, 1964).

Piter Nyumarkning kommunikativ tarjima nazariyasida ham o'quvchi manfaatlari muhim o'rin tutadi. Cho'lpon tarjimalarida asar mazmunini o'zbek kitobxoniga uchun tushunarli va tabiiy shaklda ifodalashga bo'lgan intilish aynan shu yondashuvga mos keladi (Newmark, 1988).

Shuningdek, Lourens Venuti tarjimada "mahalliyashtirish" (domestication) va "begonalashtirish" (foreignization) usullarini ajratadi. Cho'lpon asosan mahalliyashtirish tamoyiliga yaqin ishlagan. U asliyatdagi obraz va g'oyalarni saqlagan holda, ularni o'zbek kitobxonining estetik dunyoqarashiga mos shaklda ifodalagan (Venuti, 1995).

### **Cho'lpon va tarjima madaniyati**

Cho'lpon tarjimalarining eng muhim xususiyatlaridan biri tarjima madaniyatining yuksak darajada namoyon bo'lishidir. U hech qachon asliyatga beparvo munosabatda bo'lmagan. Har bir asarni chuqur o'rganib, muallif uslubini anglashga harakat qilgan.

Tarjimonning bunday yondashuvi uning jahon adabiyotini yaxshi bilganidan dalolat beradi. Shekspir, Pushkin, Gorkiy yoki Tagor kabi mutlaqo turli adabiy maktablarga mansub yozuvchilarning asarlarini muvaffaqiyatli tarjima qilish uchun katta bilim va badiiy did talab etiladi.

Cho'lpon o'z tarjimalari orqali tarjimonning faqat til bilishi yetarli emasligini, u yuksak badiiy tafakkur sohibi bo'lishi zarurligini amalda isbotladi. Tarjimalarda milliy ruh va milliy til imkoniyatlari Cho'lpon tarjimalarini o'rganishda yana bir muhim jihat e'tiborni tortadi. U asarlarni o'zbek tiliga moslashtirish jarayonida milliy tilning boy imkoniyatlaridan keng foydalangan. XX asr boshlarida o'zbek adabiy tili shakllanish bosqichida edi. Cho'lpon tarjimalari esa adabiy tilning boyishi va takomillashishiga xizmat qildi. U xalq tilidagi jonli iboralar, maqollar, tashbehtar va poetik vositalardan mohirona foydalandi. Masalan, Pushkin she'rlaridagi ayrim obrazlar o'zbek she'riyatiga an'analarga moslashtirilgan holda beriladi. Natijada asar o'zbek kitobxoniga begona bo'lib tuyulmaydi. Bu jihat tarjimaning muvaffaqiyatli chiqishida muhim omillardan biri hisoblanadi.

### **Cho'lpon tarjimalarining bugungi ahamiyati**

Bugungi globallashtirish davrida tarjimaning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Turli xalqlar adabiyoti va madaniyatlari o'rtasidagi aloqalar kengaymoqda. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, Cho'lponning tarjimonlik tajribasi zamonaviy tarjimonlar uchun muhim maktab vazifasini bajaradi. Ayniqsa: asliyat ruhini saqlash; milliy til imkoniyatlaridan foydalanish; badiiylikni yo'qotmaslik; o'quvchi qabulini hisobga olish kabi tamoyillar bugungi tarjima amaliyotida ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Cho'lponning tarjimalari nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki zamonaviy tarjimashunoslik uchun ham metodologik ahamiyat kasb etadi.

### **Xulosa**

Mazkur tadqiqot natijalari Cho'lponning o'zbek tarjimashunosligi tarixidagi o'zni beqiyos ekanligini ko'rsatdi. U nafaqat yirik shoir va yozuvchi, balki milliy tarjima maktabining asoschilaridan biri sifatida ham e'tirof etilishi lozim. Tadqiqot davomida quyidagi xulosalarga kelindi: Birinchidan, Cho'lpon XX asr boshlarida o'zbek tarjima madaniyatini yangi bosqichga olib chiqqan

ijodkorlardan biri hisoblanadi. U tarjima orqali jahon adabiyotining eng sara namunalarini o'zbek kitobxoniga yetkazgan.

Ikkinchidan, Cho'lpon tarjimalari asliyat ruhini saqlash, badiiy ta'sirni qayta yaratish va milliy til imkoniyatlaridan foydalanish tamoyillariga asoslangan.

Uchinchidan, tarjimon Pushkin, Shekspir, Gorkiy, Gogol, Geyne, Tagor va boshqa adiblar asarlarini tarjima qilish orqali o'zbek adabiyotining janr va uslub jihatdan boyishiga katta hissa qo'shgan.

To'rtinchidan, Cho'lponning tarjima haqidagi nazariy qarashlari o'zbek tarjimashunosligi rivojida muhim o'rin tutadi. Uning maqolalari tarjima nazariyasining

dastlabki namunalaridan biri sifatida baholanishi mumkin.

Beshinchidan, Cho'lpon tarjimalari bugungi kunda ham ilmiy va amaliy ahamiyatini saqlab qolmoqda. Zamonaviy tarjimonlar uning tajribasidan foydalanishlari mumkin. Umuman olganda, Cho'lponning tarjimonlik merosi o'zbek adabiyoti va tarjimashunosligi tarixining ajralmas qismi hisoblanadi. Uning faoliyati milliy adabiyotning jahon adabiyoti bilan integratsiyalashuvida muhim rol o'ynagan. Shu sababli Cho'lpon tarjimalarini yanada chuqurroq o'rganish va ularni zamonaviy tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilish kelgusidagi tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi.

#### References:

1. Baker, M. (2011). *In other words: A coursebook on translation*. London.
2. Bassnett, S. (2002). *Translation studies*. London.
3. Catford, J. C. (1965). *A linguistic theory of translation*. London.
4. Cho'lpon. (2016). *Adabiy-tanqidiy maqolalar*. Akademyashr.
5. Cho'lpon. (n.d.). *Asarlar: 4 jildlik*. Akademyashr.
6. G'afurov, I. (2011). *Tarjima nazariyasi asoslari*. Toshkent.
7. Hamdamov, U. (2017). *Jadidchilik va milliy uyg'onish*. Toshkent.
8. Jakobson, R. (1959). *On linguistic aspects of translation*. Harvard University Press.
9. Karimov, B. (2015). *Jadid adabiyoti tadqiqotlari*. Toshkent.
10. Karimov, N. (2003). *Cho'lpon*. Sharq.
11. Karimov, N. (2008). *XX asr adabiyoti manzaralari*. O'zbekiston.
12. Komilov, N. (1999). *Tafakkur karvonlari*. Toshkent.
13. Munday, J. (2008). *Introducing translation studies: Theories and applications*. London.
14. Newmark, P. (1988). *A textbook of translation*. London.
15. Nida, E. (1964). *Toward a science of translating*. Leiden.
16. Nida, E., & Taber, C. (1969). *The theory and practice of translation*. Leiden.
17. Quronov, D. (2010). *Adabiyotshunoslikka kirish*. Akademyashr.
18. Rahimov, T. (2012). *O'zbek tarjimashunosligi masalalari*. Toshkent.
19. Salomov, G'. (1978). *Tarjima nazariyasiga kirish*. O'qituvchi.
20. Sharafiddinov, O. (1994). *Cho'lponni anglash*. Ma'naviyat.
21. Sharafiddinov, O. (2004). *Ijodni anglash baxti*. Ma'naviyat.
22. Venuti, L. (1995). *The translator's invisibility: A history of translation*. London.